

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Tasdiqlayman”

O‘ZDK rektori


« » 2020 yil

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**


« » 2020 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5150500 – Dirijyorlik;
5150501 – Dirijyorlik: Xor dirijyorligi
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2020 yil

Kirish

“5150501 – Dirijyorlik: Xor dirijyorligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar xor asarlarini dirijyorlik kilish mahoratini va kolokvium ishini bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“5150501 – Dirijyorlik: Xor dirijyorligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

Ixtisoslik fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajani mukammallashtirishga, yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san’at sohasida kerak fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

5150501 – “AKADEMIK XOR DIRIJYORLIGI SAN’ATI”

“Akademik xor dirijyorligi san’ati” mutaxassisligi bo‘yicha kirish imtihonlari quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

- Dirijyorlik dasturni ijro etish
- Kollokvium

Dirijyorlik dasturni ijro etish

Turli temp va xakteri bir biriga kontrast bo‘lgan ikkita xor asarlarni dirijyorlik qilib berish bittasi a kapella (jo‘rsiz) xori uchun, ikkinchisi jo‘rli xor uchun asar. Shulardan biri, O‘zbekiston kompozitorlarining asari bo‘lishi kerak.

Dirijyorlik qilish jarayonida abituriyentning qo‘yidagi dirijyorlik xislatlariga baho beriladi: dirijyorlik apparati va dirijyorlik texnik usullarini boshlang‘ich ko‘nikmalarini egallaganligi, ritm hissiyoti, emotsionalligi (his-tuyg‘uligi), temperament (tabiati), xor bilan vizual munosabat qilishligi.

Dirijyorlik kilish uchun asarlarning namunaviy ro'yxati:

A) jo'rsiz xorlar

Burhonov M. - Yorlarim, Bibigul, Zarra-gul, Sari ko'xi baland, Sayra, Go'zal qizga, Chashmi siyoh
Umiddjonov B. - Diliman, Illila yor, Qora soch, Lapar, Qomuzchu, Go'zal
Sharafieva N. – Sayribog', Deydiyo, Ey, nozanin, Nasihat
Nechaev Ye. Bibijan, Zar duppi, Chashmoni siyohi tu
Brams I. – V nochnoy tishi
Kalinnikov V. - Javoronok, Zima, Kondor
Kyui S. - Zashvetilas vdali, Usnulo vsyo
Lasso O. - Tik - tak, Exo
Mendelson F. - Les, Predchuvstvie vesni
Prosnak K. - More
Pulenk F. - Grust
Sviridov G. - Povstrechalsya sin s ottsom, Starinniy tanets
Taneev S. - Venetsiya nochyu, Sosna
Chesnokov P. – Ne tsvetochek v pole vyanet, Elfi
Chaykovskiy P. – Nochevala tuchka zolotaya, Solovushko
Shuman R. – Nochnaya tishina
Shubert F. – Lyubov, Vechernyaya zvezda

b) Jo'rli xor uchun:

Akbarov I. – Muborak
Ashrafi M. – «Bo'ron», «Dilorom» operasidan xor sahnalari va parchalari
Bize J. – «Karmen» operasidan xor sahnalari va parchalari
Borodin A. – Introduktsiya «Slava» xori «Knyaz Igor» operasidan, xor sahnalari va parchalari
Brams I. – Sigan qo'shig'i.
Vagner R. – «Loengrin» operasidan to'y xori
Verdi Dj. – «Aida», «Rigoletto», «Trubadur» operalaridagi alohida xorlar
Gendel G. – «Samson» oratoriyasidan xorlar
Glinka M. – «Ivan Susanin», «Ruslan i Lyudmila» operalaridagi alohida xorlar
Dargomijskiy A. – «Rusalka» operasidan xor sahnalar va fragmentlar
Motsart V. – «Svadba Figaro», «Idomeney» operalaridagi alohida xorlar
Nasimov M. – «Dilbarim» syuitasidan xorlar
Sviridov G. – «Poema pamyati S. Yesenina» poema-kantatasidan xorlar
Sadikov T., Glier R. - «Layli i Majnun» operasidan xorlar.
Raxmaninov S. - «Aleko» operasidan - “Kak volnost vesel nash nochleg”,
“Ogni pogasheni” xorlari

Rimskiy-Korsakov N. – «Snegurochka», «Sadko», «Sarskaya nevesta» operalaridan xorlar.

Rajabiy Yu., Mushel G. – «Farxod va Shirin» operasidan xorlar.

Chaykovskiy P. – «Yevgeniy Onegin», «Pikovaya dama» operalaridagi alohida xorlar

Yudakov S. – «Mirzacho‘l», «Muborakbod», «Mening Vatanim», «O‘zbekiston» kantatalarining va «Maysaraning ishi» operasidan xorlar.

Shuman R. – Sigane

Kollokvium

Kiruvchi bajarishligi shart:

- fortepianoda maxsus tayyorlab kelgan a kapella xor partiturasini yoddan ijro etish;

- maxsus tayyorlangan a kapella partiturasidagi ovozlardan birini gorizontal bo‘yicha (taktlash bilan) va akkordlarning ketma-ketligini vertikal bo‘yicha yoddan kuylab berish;

- 4-ovozli xor partiturasini varaqdan o‘qish: fortepianoda chalish, ovoz va vertikal akkordlarni kuylab berish;

- intervallarni, uch tovushlik va septakkordlarni yechilishi bilan, xalq musiqasi ladlarini eshitib aniqlamoq;

Abiturientning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlab beruvchi og‘zaki savollar kiritilishi kerak:

- xor adabiyoti bo‘yicha bilimlar;

- xorshunoslik asoslari bo‘yicha bilimlar.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Dirijyorlik dasturni ijro etish– 38 ball, kollokvium – 58 ball. Mazkur ta‘lim yo‘nalishida ijodiy imtihon uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 96.

<u>No</u>	Savollar mazmuni	To‘liq javob
1.	Matnini bilishi	<u>7,6</u>
<u>2.</u>	Dirijyor apparati va boshlang‘ich texnik usullarni egallashligi	<u>7,6</u>
<u>3.</u>	Ritm, pulsatsiya hissiyoti	<u>7,6</u>
<u>4.</u>	Emotsionalligi, temperament (tabiati)	<u>7,6</u>
<u>5.</u>	Xor bilan vizual munosabat	<u>7,6</u>

Dirijyorlik dasturni ijro etish bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan
maksimal ball - **38 ball**

<u>No</u>	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	A kapellani yoddan chalish	7
2.	Ovoz va vertikallarni yoddan kuylab berish	8
3.	4-ovozli a kapella asarni varaqdan o'qib berish	7
4.	Ovoz va vertikallarni varaqdan o'qish	8
5.	Intonatsiya sofligi	10
6.	Eshitib aniqlamoq	10
7.	Xor adabiyoti bilimlari	3
8.	Xorshunoslik asoslari bo'yicha bilimlari	3
9.	Terminologiya	2

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **58 ball**
Jami – 96 ball.

**“Garmoniya”
fanidan**

Fanning maqsadi va vazifalari

«Garmoniya» fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi- abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi, musiqiy asarlar tahlili jarayonida garmonik qonuniyatlarni qay darajada bila olishini aniqlashdan iborat. Garmoniya musiqa ijrochilarining maxsus nazariy bilim darajasini belgilaydi. Professional ijro ko'nikmalari, tabiiy iste'dod, badiiy didning rivojlantirish bilan bir qatorda garmonik xususiyatlarni idrok etish, ijro paytida anglash qobiliyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. SHuningdek, musiqa muallifining asarida bayon etilgan badiiy g'oyasining garmonik jihatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik qonuniyatlariga asoslangan holda bir ovozli kuyga garmonik tuzilmalarni yaratish;
- muayyan misollar asosida garmonik tushunchalarini qo'llash;
- garmoniyaning musiqiy tilning barcha tarkibiy qismlari bilan bog'lay olish;
- musiqa asarining badiiy g'oyasi va mazmunidan kelib chiqqan holda garmonik vositalarni tanlay olish.

Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

Abiturient "Garmoniya" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda og'zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtixonida abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Og'zaki javob.

1. Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.
2. Forte pianoda:
 - a) to'rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og'ishmalari bilan ijro etish;
 - b) berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;
 - v) diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.

BAHOLASH MEZONI: OG'ZAKI

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.	21,0
2.	to'rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og'ishmalari bilan ijro etish;	24,0
3.	berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;	24,0
4.	diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.	24,0
Jami		93,0

Garmoniya fani uchun qo'yiladigan maksimal – **93,0 ball.**

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 189,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

5150501 – Dirijyorlik: Xor dirijyorligi ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida 1 soat vaqt davomida ijodiy imtihon topshiradi. Ijodiy imtihon 9⁰⁰ da boshlanadi. Imtihonlar yakka tartibda belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.